

MAXSUS VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TOJIKISTON RESPUBLIKASI TAJRIBASINING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Rahimov Sherzod Alisher o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,

Magistratura fakulteti tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1417358>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz va qo'shni Tojikiston Respublikasida Maxsus vosita qo'llash asoslari va qoidalalaridagi o'zaro o'xshashliklar va o'ziga xos xususiyatari to'g'risida bir qancha fikrlar va amaliy tajribalardan ko'zlangan maqsadlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: maxsus vosita, rezina tayoq, qo'l kishanlari, elektroshok qurilmalari, jismoniy kuch ishlatalish.

SPECIFIC ASPECTS OF THE EXPERIENCE OF THE REPUBLIC OF TAJIKISTAN IN INCREASING THE EFFICIENCY OF THE USE OF SPECIAL TOOLS

Abstract. In this article, several opinions and practical experiences about the similarities and specific features of the principles and rules of the use of special tools in our country and the neighboring Republic of Tajikistan are presented

Key words: special tool, rubber stick, handcuffs, electroshock devices, use of physical force.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОПЫТА РЕСПУБЛИКИ ТАДЖИКИСТАН ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНОГО ИНСТРУМЕНТА

Аннотация. В данной статье представлены несколько мнений и практический опыт о сходстве и особенностях принципов и правил применения специального инструмента в нашей стране и соседней Республике Таджикистан

Ключевые слова: спецсредство, резиновая палка, наручники, электрошоковые устройства, применение физической силы.

Ma'lumki mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jamoat tartibini saqlash va fuqorolarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida joylarda, istirohat bog'larida, aholi gayrum maskanlarda shuningdek boshqa xizmat vazifasidan kelib chiqib maxsus vositalardan foydalanishlarini ko'rishingiz mumkin. Bunday vositalar tarkibiga asosan rezina tayoqlar, qo'l kishanlari, aerozollar va elektroshok qurilmalarini misol keltirishimiz mumkin.

Mamlakatimiz qonuni ham jahon standartlari doirasida ishlab chiqilganligini boshqa davlatlarning aynan shunday qonunlarini tahlil qilish orqali bilib olishimiz mumkin. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa, maxsus vositalarni qo‘llash samaradorligini yanada oshirish hisoblanadi. Boy amaliy tajribalar kuzatish va o‘rganish ortidan kelib chiqishi ham hech kimga sir emas.

2020-yil 18-noyabrdan qabul qilingan 647-son yildagi “O‘zbekiston respublikasi Milliy Gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, Milliy Gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlari faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda o‘qotar qurol va maxsus vositalarni olib yurish, saqlash, ularni qo‘llash va jismoniy kuch ishlatish huquqiga ega. Qonunning 5-bob. Milliy gvardianing harbiy xizmatchilari (xodimlari) tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni, o‘qotar qurolni qo‘llash, tashkilotlarning va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish deb nomlangan va 30-moddaga asosan Milliy gvardianing harbiy xizmatchilari (xodimlari) maxsus vositalarni:

- fuqaroga yoki Milliy gvardianing harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qilingan hujumni qaytarishda;
- jinoyatga yoki ma’muriy huquqbazarlikka barham berishda;
- Milliy gvardianing harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qarshilik ko‘rsatilishiga barham berishda;
- jinoyatni sodir etishi chog‘ida yoki uni sodir etganidan keyin darhol ko‘rib qolningan, yashirinishga urinayotgan shaxsni ushslashda;
 - qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsni ushslashda;
 - ushlab turilgan shaxslarni olib borish va qo‘riqlashda, shuningdek qochishga urinishini, atrofdagilarga yoki o‘ziga zarar yetkazishini bartaraf etish maqsadida;
 - zo‘ravonlik ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;
 - fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga hamda boshqa g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlarga chek qo‘yishda;
 - haydovchisi Milliy gvardiya harbiy xizmatchisining (xodimining) to‘xtash to‘g‘risidagi talabini bajarmagan transport vositasini to‘xtatishda;
 - jinoyatlar yoki ma’muriy huquqbazarliklar sodir etayotgan yoxud sodir etgan shaxslarni aniqlashda;
 - muhofaza qilinadigan obyektlarni himoya qilishda, g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlarni sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to‘sib qo‘yishda qo‘llash huquqiga ega.

Milliy gvardianing harbiy xizmatchilari (xodimlari) quyidagi maxsus vositalarni:

a) rezina tayoqlarni, shikastlantiruvchi qurolni, qo‘lkishanlarni yoki boshqa bog‘lash vositalarini, elektroshok qurilmalarini, ta’sirlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan vositalarni, xizmat hayvonlarini quyidagi hollarda:

-fuqaroga yoki Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qilingan hujumni qaytarishda;

-jinoyatga barham berishda;

-Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qarshilik ko‘rsatilishiga barham berishda;

-jinoyatni sodir etishi chog‘ida ko‘rib qolingan yoki uni sodir etganidan keyin darhol yashirinishga urinayotgan shaxsni ushslashda;

-qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsni ushslashda;

-zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

-muhofaza qilinadigan obyektlarni va shaxslarni himoya qilishda;

-g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sishda;

b) maxsus bo‘yovchi va markirovka qiluvchi vositalar, muhofaza qilinadigan obyektlarni (hududlarni) va shaxslarni himoya qilish, g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sish vositalarini quyidagi hollarda:

-muhofaza qilinadigan obyektlarni va shaxslarni himoya qilishda;

-g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sishda;

v) chalg‘itma ta’sir ko‘rsatuvchi nur-tovush moslamalarini quyidagi hollarda:

-zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

-muhofaza qilinadigan obyektlarni va shaxslarni himoya qilishda;

-g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sishda;

g) zirhlari mashinalar, maxsus mashinalar, suv bilan zarba beruvchi mashinalar va katerlarni quyidagi hollarda:

-qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsni ushslashda;

-zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

-davlat hokimiyati va huquq-tartibot organlari vakillariga nisbatan kuch ishlatalish bilan bog'liq ommaviy tartibsizliklarga hamda ruxsat etilmagan mitinglarga chek qo'yishda qo'llash huquqiga ega.

Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) ushbu Qonunda o'qotar qurolni qo'llash ruxsat etilgan barcha hollarda maxsus vositalarni qo'llash huquqiga ega.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko'rinish turgan shaxslarga hamda yoshi aniq ko'rinish turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan maxsus vositalarni, shu jumladan shikastlaniruvchi qurolni qo'llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko'rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) hayoti va sog'lig'iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilganligi hollari mustasno.¹

Mazkur moddaning ikkinchi qismiga asosan 1–5, 7, 8 va 11-asoslarda ko'rsatib o'tilgan hollar vujudga kelganda ichki ishlar organlari xodimlari rezina tayoqlardan 8 va 9-asoslarda ko'rsatib o'tilgan hollarda esa transport vositalarini majburiy to'xtatish vositalaridan foydalanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi miqyosida buning belgilangan talabi va qoidalari shulardan iborat bo'lsa, qo'shni Tojikiston Respublikasida bu sohadagi qonun loyihasida qanday o'xshashlik va foydali tomonlar bor ekanligini bilish uchun Tojikiston Respublikasining 2004-yil 17-mayda qabul qilingan "Militsiya to'g'risida"gi Qonuniga nazar tashlaymiz. Qonunning 4-bobi "Militsiya tomonidan jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'qotar qurollardan foydalanish", deb belgilangan ekan.

Jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'qotar qurollarni qo'llash shartlari va chegaralari esa 13-moddada o'z aksini topgan: Ichki ishlar organi xodimi jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'qotar quroldan faqat ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda foydalanishga haqli. Jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'qotar qurollar ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda ichki ishlar organi xodimining ixtiyoriga ko'ra mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda qo'llaniladi. Jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'qotar qurollarni qo'llashdan oldin ularni qo'llash to'g'risida ogohlantirish berilishi kerak.

Jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'qotar qurollardan foydalanishning oldini olishning iloji bo'lmagan barcha hollarda ichki ishlar organi xodimi imkonli boricha eng kam ma'naviy, mulkiy va jismoniy zarar yetkazishga harakat qilishi shart.

¹ 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan, "Milliy Gvardiya to'g'risida"gi qonuni

Agar jismoniy kuch, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurollar qo‘llash natijasida tan jarohati yoki jarohat etkazilgan bo‘lsa, militsiya xodimi jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishi shart.

Ichki ishlar organi xodimi jismoniy kuch, maxsus vositalar va o‘qotar qurollar qo‘llash natijasida shaxsning tan jarohati yoki o‘limi to‘g‘risida bevosita boshlig‘iga xabar berib, prokurorni xabardor qilishi shart.

Shaxsga ma’naviy, moddiy va jismoniy zarar yetkazganlik uchun militsiya xodimlari, harbiy xizmatchilar va boshqa shaxslar, agar ular jismoniy kuch ishlatsa, jinoyat qonunchiligiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Jismoniy kuch, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurolni vakolatdan tashqari qo‘llash huquqiy hujjatlarda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Ushbu qonunning 14-moddasida. Maxsus vositalardan foydalanish asoslari keltirilgan. Politsiya xodimi quyidagi hollarda ichki ishlar organlarida mavjud bo‘lgan maxsus vositalardan foydalanishga haqli:

- 1) fuqarolarga va militsiya xodimlariga qilingan hujumlarni qaytarishda;
- 2) militsiya xodimiga qarshilik ko‘rsatishning oldini olishda;
- 3) hayoti, sog‘lig‘i yoki mulkiga qarshi jinoyat sodir etib, qochishga uringan shaxsni ushslashda;
- 4) qurolli qarshilik ko‘rsatadi, deb hisoblash uchun etarli asoslar mavjud bo‘lgan shaxslarni ushlab turishda;
- 5) qamoqqa olinganlarni ichki ishlar organlariga yetkazish, ushlab turilganlarni, shuningdek ma’muriy qamoqqa olingan va qamoqqa olingan shaxslarni, agar ularning xattiharakati ular qochishi mumkinligi yoki boshqalarga yoki o‘ziga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazishi mumkinligiga ishonish uchun asos bo‘lsa, ularni kuzatib borish va himoya qilish, politsiya xodimiga qarshilik ko‘rsatishda;
- 6) fuqarolarga, davlat va jamoat organlariga, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga tegishli binolar, inshootlar va transport vositalariga qilingan hujumlarni qaytarish, jinoyatchilar tomonidan garovda ushlab turilgan shaxslarni, olib qo‘ylgan binolar, inshootlar, transport vositalari va yer uchastkalarini ozod qilishda;
- 7) transport, aloqa va tashkilotlar ishiga putur yetkazuvchi ommaviy tartibsizliklar va guruh harakatlariga barham berishda;
- 8) haydovchisi militsiya xodimining to‘xtash to‘g‘risidagi iltimosini bajarmagan transport vositasini to‘xtatish;
- 9) jinoyat sodir etgan yoki sodir etgan shaxslarni aniqlashda.

Maxsus vositalar sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin:

- rezina tayoqlar - ushbu moddaning birinchi qismining 1, 2, 7-bandlarida nazarda tutilgan hollarda;
- ko‘zdan yosh oqizuvchi gaz - ushbu moddaning birinchi qismining 1,2,4,6,7-bandlarida nazarda tutilgan hollarda;
- qo‘l kishanlari - ushbu moddaning birinchi qismining 2, 3, 4 va 5-bandlarida nazarda tutilgan hollarda. Qo‘l kishanlari bo‘lmagan taqdirda, politsiya xodimi qo‘lbola ushlab turish vositalaridan foydalanish huquqiga ega;
- ushbu moddaning birinchi qismining 4, 6 va 7-bandlarida nazarda tutilgan hollarda yorug‘lik va shovqin chiqaruvchi vositalar
 - transport vositalarini majburiy to‘xtatish vositalari- ushbu moddaning birinchi qismining 8-bandida nazarda tutilgan hollarda;
 - zirhli transport vositalari - ushbu moddaning birinchi qismining 4, 6 va 7-bandlarida nazarda tutilgan hollarda va faqat ichki ishlar organi boshlig‘ining topshirig‘iga binoan, bu haqda prokurorga xabar berilgan kundan boshlab 24 soat ichida.
- xizmat itlari - ushbu moddaning birinchi qismining 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 9-bandlarida nazarda tutilgan hollarda;
- ushbu moddaning birinchi qismining 1, 2, 3, 4 va 7-bandlarida nazarda tutilgan hollarda elektroshok qurilmalari.
- to‘siqlarni yo‘q qiladigan vositalar - ushbu modda birinchi qismining 6 va 7-bandlarida nazarda tutilgan hollarda;
- maxsus rang beruvchi vositalar – mazkur moddaning birinchi qismining 3, 7 va 9-bandlarida nazarda tutilgan hollarda;
- otlar - mazkur moddaning birinchi qismi 3 va 7-bandlarida nazarda tutilgan hollarda;
- rezina o‘qlar - ushbu moddaning birinchi qismining 1, 2, 3 va 7-bandlarida nazarda tutilgan hollarda.

Maxsus vositalarning barcha turlaridan, shuningdek, ushbu Qonun 16-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda foydalanish mumkin. Homiladorlikning aniq belgilari bo‘lgan ayollarga, nogironligining aniq ko‘rinib turgan shaxslarga va voyaga yetmaganlarga nisbatan maxsus vositalarni qo‘llash taqiqlanadi, bundan ular qurolli qarshilik ko‘rsatgan yoki odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi guruh yoki boshqa hujum sodir etgan hollar bundan mustasno. Shuningdek, noqonuniy yig‘ilishlar, mitinglar, namoyishlar, ko‘cha yurishlari va zo‘ravonliksiz piketlarni bostirish uchun, agar bu holda jamoat tartibi buzilgan bo‘lsa, maxsus vositalardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Zaruriy mudofaa yoki o‘ta zarurat holatida politsiya xodimi, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurollar bo‘lidan taqdirda, mavjud bo‘lgan har qanday vositadan foydalanishga haqli².

Xulosa o‘rnida shuni aytish mukinki, Tojikiston va O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida umumiy o‘xshashlik mavjud bo‘lib, maxsus vositalarni qo‘llash asoslari ham umumiy qoidalarga asoslanishini ko‘rishimiz mukin. Asosiy farq sifatida esa Tojikiston Respublikasining “Militsiya to‘g‘risidagi” qonuning 14-moddasi “Maxsus vositalardan foydalanish asoslari”, deb nomlangan va moddaning oxirida quyidagi jumla keltirilgan “*Zaruriy mudofaa yoki o‘ta zarurat holatida politsiya xodimi, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurollar bo‘lidan taqdirda, mavjud bo‘lgan har qanday vositadan foydalanishga haqli*”. Bundan xulosa sifatida Tojikistonning harbiy xizmatchi va xodimlari tomonidan zaruriy mudofaa sifatida har qanday vositan, masalan tayoq, qattiq jism, qurilish materiallari, qo‘lbola tayyorlangan jihozlar va suuqliklar bilan yuklatilgan vazifalarni qonunda belgilangan tartibda bajarishga haqli. Buni ta’minlab berish esa hech qanday cheklovlarini, uning maxsus vositalar bilan ta’minlanmaganli va butlanmaganligi sababli vazifalarini bajarishni, fuqorolar xavfsizligini ta’minlash kabi tushunchalardan chetda turishga, harakatsiz qolish yoki shunchaki Taslim bo‘lishga yo‘l qoymaslikka chaqirib qoladigan fikr deyish mumkin. Aynan ushbu moddaning ushbu qismini bizning qonun hujjatlariga ham kiritish va bu orqali xizmat vazifalarini bajalarish sifatini yanada oshirish mukinligini aytib o‘tish juda o‘rinli.

REFERENCES

1. 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan, “Milliy Gvardiya to‘g‘risida”gi qonuni
2. O‘RQ-407 son 16.09.2016 yildagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni.
3. Tojikiston Respublikasining 2004-yil 17-mayda qabul qilingan “Militsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. aniq.uz

² 2004-yil 17-mayda qabul qilingan “Militsiya to‘g‘risida”gi Qonuni